



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ONA TILI O'QITISHNING GLOBAL MUAMMOLARI

Shodiyev Fakhriddin Teshaevich

*PhD in Philology, Head of the Department of Uzbek-Finnish Pedagogical Institute,
Uzbekistan Shodiyevbt@gmail.com*

Yuldasheva Sadoqat Xamid qizi

*Uzbek-Finnish Pedagogical Institute 2nd year master student of primary education
Sadoqatyoldasheva132@gmail.com*

Annotatsiya: Maqola dunyo bo'yicha turli davlatlarda o'z ona tilini o'rgandan duch keladigan global muammolarni o'rganib, turli davlatlarni o'zbek ta'lif tizimida ona tili o'qitishning muammolarini taqosslab o'rganib chiqildi. Zamonaviy texnologiyalarning ta'lif sifatidagi afzalliklari va kamchiliklari haqida so'z boradi. Global muammolarni yechishda qilinishi kerak bo'lgan chora tadbirlar ko'rsatib o'tiladi va Finlandiya ta'lif tizimi namuna sifatida keltiriladi. Ona tilini o'rgatishga va o'rganishga ta'sir qiluvchi global omillar haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar; *Globalizatsiya, innovatsiya, dominant, kommunikativ savodxonlik, o'zlashma so'zlar, Unesco.*

Абстрактный: В статье рассматриваются глобальные проблемы, с которыми сталкивается изучение родного языка в разных странах мира, и сравниваются проблемы преподавания родного языка в узбекской системе образования разных стран. Обсуждаются преимущества и недостатки современных технологий в качестве образования. Показаны меры, которые необходимо предпринять для решения глобальных проблем, на примере финской системы образования. Предоставляется информация о глобальных факторах, влияющих на преподавание и изучение родного языка.

Ключевые слова: Глобализация, инновации, доминанта, коммуникативная грамотность, заимствованные слова, ЮНЕСКО.

Abstract: The article examines the global problems faced by learning one's native language in different countries around the world, and compares the problems of teaching the native language in the Uzbek education system of different countries. Advantages and disadvantages of modern technologies as education are discussed. Measures to be taken to solve global problems are shown and the Finnish education system is given as an example. Information is provided on global factors affecting mother tongue teaching and learning.

Key words: *Globalization, innovation, dominant, communicative literacy, borrowed words, Unesco.*

Til – insonlar o'rtasidagi aloqa vositasi, kishilik jamiyatining mahsulidir. Jamiyat taraqqiyotini tilsiz va til ravnaqini jamiyatsiz tasavvur etish mumkin emas. Bugungi tillar uzoq asrlar mobaynida murakkab tarixiy jarayonlarni kechirish natijasida



vujudga kelgan. [6-4] Ona tili insonning o'zini anglash, madaniy merosni saqlash va milliy qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazishning eng muhim vositasidir. Har bir bola o'z ona tilini o'rganish orqali nafaqat til ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki o'zining tarixiy va madaniy ildizlarini ham anglaydi. Har bir til uning sohibi bo'lmish jamoaning beba ho mulki bo'lib, o'zi mansub jamoaning nomi bilan ataladi: o'zbek jamoasiga xizmat qiluvchi tilga o'zbek tili deyiladi. [3-1]

Bugungi globalizatsiya jarayonlari va texnologik inqilob sharoitida ko'plab milliy tillar yo'qolib ketish xavfi ostida turibdi. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda mavjud 7 mingdan ortiq tillarning yarmidan ko'pi bu asr oxirigacha yo'q bo'lishi mumkin. [7]

Milliy tillar o'zining tarqalish hududi jihatidan hamda ulardan foydalanuvchi aholining miqdori, soni jihatdan bir xil emas: ayrim tillarda kichik xududdagi oz miqdorli aholi gaplashadi, ba'zi tillar esa juda katta xududlardagi ko'p sonli aholi orasida tarqalgan. Bunday tillarga ingliz, frantsuz, nemis, ispan, xitoy, hind, arab, rus va shu kabi tillar kiradi.[14- 2] Tillarning yo'qolishi, ayniqsa, boshlang'ich ta'limda ona tili ta'limi tizimini mustahkamlash va yangilash zaruratinini ko'rsatadi. Boshlang'ich ta'limda ona tilini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilar bir qator muammolarga duch kelmoqda. Bular orasida so'z boyligini cheklanganligi, to'g'ri talaffuzga ega bo'lisdagi qiyinchiliklar va o'qish-yozish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi muammolar mavjud. Shu bilan birga, ijtimoiy va oilaviy muhitning o'quvchining lingvistik rivojlanishiga ta'siri katta ahamiyatga ega.

O'zbek ta'lim tizimida esa darsliklarning sifatiga oid kamchiliklar, o'quv dasturlarining zamonaviy talablar bilan mos kelmasligi va o'qituvchilarning malaka darajasi yetarli emasligi ko'zga tashlanadi. Ona tili darsligi uchun tanlangan mantnlar ta'limi va tarbiyaviy yo'nalishda, rang – barang mavzularda, shaklan va mazmunan mukammal, mantiqan to'g'ri, tili sodda va ravon, o'quvchi uchun tushunarli bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Ana shundagina matn, matn yaratish sistemasi va matn tahlili o'quvchi uchun zarur bo'lgan natijani beradi – kommunikativ savodxonlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. [26- 3] Ona tilini o'rganish o'quvchilar uchun juda muhim, chunki bu tilni bilish nafaqat jamiyatga moslashishni osonlashtiradi, balki o'quvchilarning umumiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantiradi. Biroq, ona tilini o'rganishda turli qiyinchiliklar mavjud. 1-4-sinflarda o'quvchilar ona tili va o'qish predmetlaridan o'qish texnikasi, matn mazmunini va o'zgalar fikrini anglash malakasi, fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarning minimal darajasi belgilab berildi. Bu o'rinda ona tiliga katta vazifa yuklatildi: ona tili ta'limga o'quv fani sifatidagina emas, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraldi. [16-5] Biroq global miqyosda o'quvchilar turli omillar, jumladan, oilaviy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar, ta'lim muhitining sifati kabi omillar tufayli ona tilini o'rganishda qiyinchiliklarga duch keladilar. O'quvchilar ko'pincha talaffuz, grammatikani o'rganish, va so'z boyligini rivojlantirishda muammolarga uchraydilar. Bunday holatlar, ayniqsa, o'quvchilar o'z ona tillariga begona bo'lib qolgan



davlatlarda yoki keng ko'lamdag'i immigratsion o'zgarmalar yuz berayotgan mamlakatlarda keng tarqalgan.

YuNESKOning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ko'pgina davlatlar erta yoshda ona tilini rivojlantirish uchun kam mablag' sarflaydi va boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalar uchun mos o'quv dasturi va pedagogikalarni yaratish uchun juda oz kuch sarflaydi. [7] Bundan tashqari, til o'rganish jarayonida o'quvchilarning yoshiga qarab, ular turli xil psixologik va pedagogik muammolarga duch keladilar. Bular orasida o'z ifodasini topishda qiyinchiliklar, talaffuz va grammatikani o'zlashtirishdagi noaniqliklar mavjud. O'qituvchilar esa, aksariyat hollarda, yangi pedagogik metodlarni va texnologiyalarni qo'llashda tajribaga ega emaslar, bu esa ona tili o'qitish sifatini pasaytiradi. So'nggi yillarda innovatsion texnologiyalarning ta'lim tizimiga kirib kelishi ona tili darslarining sifatini oshirishda muhim rol o'yynamoqda. Masofaviy ta'lim platformalari, interaktiv dasturlar va sun'iy intellekt texnologiyalari o'quvchilarning qiziqishini oshirib, individual yondashuvni kuchaytirishga yordam beradi. O'qituvchi ta'lim jarayonida o'qitish shakllarini optimal darajada tash kil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Hozirgi kunda o'qituvchining peda gogik mahoratida "Bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish, baholash" kabi didaktik qonuniyatlar ta'lim berishning muhim katego riyalari sifatida e'tirof etilgan.[204-6] Biroq, texnologiyaga haddan tashqari bog'lanish o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi jonli muloqotning kamayishiga va madaniy komponentlarning e'tibordan chetda qolishiga olib kelishi mumkin.

O'zbekiston ta'lim tizimida ona tilini o'qitishda mavjud bo'lgan kamchiliklar ko'p jihatdan global muammolar bilan o'xshash. Biroq, O'zbekistonning o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va geografik sharoitlari ushu kamchiliklarni yanada chuqurlashtiradi. Mamlakatimizdagi chekka qishloqlarda va shaharlarda ta'lim sifatidagi farqlar ona tilini o'qitishga ta'sir qiladi. Shahar maktablarida ta'lim resurslari ko'proq yangilanib boradi, darsliklar va pedagogik metodlar o'zgarib turadi. Aksincha, chekka hududlarda resurslar kamroq, va o'qituvchilarning malakasi ba'zan yetarli darajada bo'lmasligi mumkin. Bu holat, ayniqsa, ona tili darslarida muammo tug'diradi, chunki o'qituvchilarning yangi metodikalarni qo'llash imkoniyatlari cheklangan bo'ladi. O'qituvchilarning malakasi va innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishdagi qiyinchiliklar ham ona tilini o'qitishning samaradorligini pasaytiradi.

O'zbekistonning shahar va chekka qishloqlari orasida ta'lim resurslari va ta'lim imkoniyatlarida sezilarli farqlar mavjud. Shahar maktablari ko'proq zamonaviy o'quv materiallari, interaktiv ta'lim platformalari va malakali o'qituvchilar bilan ta'minlangan. Biroq, chekka qishloqlarda bunday imkoniyatlar kamroq, bu esa o'quvchilarning ona tilini o'rganishda qo'shimcha to'siqlar yaratadi. Misol uchun, chekka hududlarda o'qituvchilar ko'proq an'anaviy darsliklar va metodikalarga tayanadilar, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari cheklangan bo'ladi. Bu esa o'quvchilarning o'rganish samaradorligini kamaytirishi mumkin. Geografik farqlar



shuningdek, o'quvchilarning til o'rganish motivatsiyasiga ham ta'sir qiladi. Shahar maktablarida o'quvchilarda ona tilini o'rganishga yuqori motivatsiya bo'lishi mumkin, chunki ular raqobatbardosh va innovatsion metodlar bilan ta'lif oladilar. Chekka qishloqlarda esa bolalar ko'proq an'anaviy va ko'p hollarda to'g'ri o'qitilmagan tilni o'rganishga majbur bo'ladilar. O'zbekistonning ta'lif tizimida darsliklar va o'quv materiallarining eskirganligi, shuningdek, innovatsion texnologiyalarni ta'limga integratsiya qilishdagi cheklangan imkoniyatlar ona tilini samarali o'rgatishda to'siq bo'layotgan eng katta muammolardan biridir.

Globalizatsiya va ingliz tilining dominantligi tufayli ko'pchilik davlatlarda o'z ona tilining yo'qotilishi eng katta muammolardan biridir. Yoshlearning o'z ona tilisiga bo'lgan muhabbat va e'tibori kamayib ketmoqda. Bundan tashqari tilning boyishida muhim ahamiyat kasb etadigan bu chetdan o'zlashgan so'zlar hisoblanadi. Chetdan o'zlashgan so'zlar (loanwords) ona tilini o'qitishda muhim ta'sir ko'rsatishi mumkin. [14-8] O'zbek tilida ko'p chetdan o'zlashgan so'zlar mavjud bo'lib, bu so'zlarning ta'lif jarayoniga ta'siri va o'quvchilarning til o'rganishiga qanday muammolar yaratishi haqida alohida to'xtalish zarur. Chunki chetdan o'zlashgan so'zlar ona tilining sofligini saqlashda muammolarni keltirib chiqaradi. Ko'plab so'zlar o'zbek tiliga rus, ingliz, arab va boshqa tillardan kirib kelgan. O'zbek tilining sof shaklini o'rganishga intilayotgan o'quvchilar bunday so'zlar bilan o'zaro bog'liq bo'lib, tilni to'g'ri o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Chetdan o'zlashgan so'zlarning talaffuzi, yozilishi va ularning grammatika strukturasiga qo'llanilishi o'quvchilarda qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Misol uchun, ingliz tilidan kirgan so'zlar o'zbek tilidagi fonetik tizimga mos kelmasligi mumkin, bu esa talaffuzni to'g'ri o'rganishda muammolarni keltirib chiqaradi. O'quvchilar chetdan o'zlashgan so'zlarni o'zlashtirishda o'z ona tillarini to'liq o'rganishga to'sqinlik qiladigan muammolarga duch kelishadi. Bu so'zlar ko'pincha o'quvchilarga murakkablik yaratadi, chunki ular bu so'zlarning ma'nosi va qo'llanishiga to'liq tushuncha bera olmaydilar. Shu sababli, ona tili darslarida bu so'zlar bilan ishslash alohida diqqatni talab qiladi.

O'zbek tiliga o'zlashgan so'zlar ba'zan grammatik qoidalariga mos kelmaydi. Misol uchun, rus tilidan kirgan so'zlar ko'pincha o'zbek tili grammatikasiga to'g'ri kelmaydi va bu o'quvchilarni noaniqliklarga olib keladi. O'quvchilarga grammatik tuzilmalarni o'rgatishda chetdan o'zlashgan so'zlar va ularning o'zbek tilidagi ishlatalishiga e'tibor qaratish zarur. [75-9] Chetdan o'zlashgan so'zlar ona tilining rivojlanishiga ijobiy ham, salbiy ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bir tomondan, ular tilga yangilik va boylik kiritishi mumkin, lekin boshqa tomondan, bu so'zlar o'zbek tilining asli til strukturasini o'zgartirib, o'quvchilarni tilni sof o'rganishga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli, ona tilini o'qitishda chetdan o'zlashgan so'zlar va ularning to'g'ri qo'llanishiga alohida e'tibor qaratish zarur. Shu yerda shu ta'kidlash kerakki K.D.Ushinskiy boshlang'ich maktab o'quv predmetlari tizimida ona tiliga katta ahamiyat berib, uni markaziy va yetakchi predmet hisoblagan. [49-10] Chetdan o'zlashgan so'zlar ona tilining rivojlanishiga ijobiy ham, salbiy ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bir tomondan, ular tilga



yangilik va boylik kiritishi mumkin, lekin boshqa tomondan, bu so'zlar o'zbek tilining asli til strukturasini o'zgartirib, o'quvchilarni tilni sof o'rganishga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli, ona tilini o'qitishda chetdan o'zlashgan so'zlar va ularning to'g'ri qo'llanishiga alohida e'tibor qaratish zarur. Ona tilini o'qitishda chetdan o'zlashgan so'zlar masalasi juda muhim. O'quvchilarga so'z boyligini to'g'ri o'zlashtirishda va grammatika qoidalarini tushunishda bu so'zlarning to'g'ri ishlatilishi kerak. Shuningdek, o'qituvchilar bu so'zlarni o'quvchilarga tushuntirishda muvozanatni saqlashlari lozim, chunki ularning noto'g'ri ishlatilishi tilni o'rganishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'zbek tilining rivojlanishini va uning sofligini saqlashda chetdan o'zlashgan so'zlarni to'g'ri qo'llash katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda innovatsion texnologiyalar ona tili o'qitish jarayoniga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Raqamli ta'lif platformalari, interaktiv darsliklar va video darslar o'quvchilarning tilni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarini yengillashtirishga yordam beradi. Masalan, video materiallar, til o'rgatish dasturlari va mobil ilovalar o'quvchilarga tilni nafaqat o'qish, balki tinglash va gapirish orqali ham o'rganish imkonini yaratadi. Bunday texnologiyalar ona tilini o'rganishni yanada qiziqarli va samarali qiladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar o'qituvchilarga o'quvchilarni individual ravishda qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Misol uchun, online testlar va interaktiv mashqlar orqali o'quvchilarni doimiy ravishda baholash, ularning bilim darajasini kuzatib borish va zarur bo'lsa, darsni moslashtirish mumkin. Bu esa o'qituvchilarga har bir o'quvchining o'rganish jarayonini yaxshiroq boshqarish imkonini yaratadi.

Innovatsion texnologiyalarning ona tili o'qitishdagi afzallikkleri quyidagilardir:

1. O'quvchilarga qiziqarli va interaktiv ta'lif imkoniyatlarini taqdim etadi. Video darslar, o'yinlar va simulyatsiyalar orqali o'quvchilar tilni o'rganishni qiziqarli va amaliy tarzda bajaradilar.
2. Tinglash va talaffuzni yaxshilash imkoniyatlarini yaratadi. Onlayn audio va video materiallar orqali o'quvchilar tilning talaffuzini to'g'ri o'rganishlari mumkin.
3. O'quvchilarning qiyinchiliklariga moslashishni osonlashtiradi. Individuallashgan yondashuv texnologiyalari o'quvchilarning o'ziga xos qiyinchiliklarini aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi.
4. Resurslar va ma'lumotlarga erkin kirish imkonini yaratadi. Internet orqali ta'lif resurslaridan keng foydalanish imkoniyati, shu jumladan, ilmiy maqolalar, darsliklar va video materiallar orqali o'quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi.

Dunyoning turli mamlakatlarida ona tilini o'qitishda amalgalash oshirilgan ilg'or tajribalar ham muhim o'rnak hisoblanadi. Masalan: Finlandiya: Bu mamlakatda innovatsion metodlar va texnologiyalar orqali til o'qitish jarayoni rivojlantirilgan. O'quvchilarga o'z ona tillarini mukammal o'zlashtirish uchun zamonaviy materiallar va interaktiv darslar taqdim etiladi. Finlandiya ta'lif tizimi, dunyoda o'zining yuqori sifatlari va innovatsion yondashuvlari bilan tanilgan. Ona tili o'qitish bo'yicha ham Finlandiya ta'lifi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Finlandiyada ta'lif tizimi umumiy



kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan. Ona tili o'qitishning maqsadi nafaqat tilni o'rganish, balki o'quvchilarga tanqidiy fikrlash, muloqot qilish va o'z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatini berishga qaratilgan. Finlandiyada barcha o'qituvchilar oliy ma'lumotli va pedagogik metodlarni mukammal o'zlashtirgan. Ona tilini o'qituvchilarining yuksak malakasi ta'lim sifatining yuqori darajaga ko'tarilishiga olib keladi. Finlandiyada pedagogik bilim bu o'qitish va o'rganishdan iborat deyiladi. [14-12] Finlandiyada ta'lim tizimi har bir o'quvchining ehtiyojlarini inobatga olgan holda tuzilgan. Darslar o'quvchilarning individual xususiyatlariga mos ravishda tashkil etiladi. Ona tili o'qitishdagi individual yondashuvlar til o'rganish jarayonini samarali qiladi. Finlandiyada ona tili o'qitishning bir muammosi — bu turli dialektlar va shevalarning mavjudligi. O'quvchilar turli hududlarda yashashadi va ular ona tili darslarini o'z shevalari bilan o'rganishadi. Bu, ba'zan, umumiy standartlarga mos kelmasligi mumkin.[11] Singapurda o'qituvchilarning malakasini oshirish va yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimiga kiritish bo'yicha alohida e'tibor qaratiladi. Bu yondashuv orqali o'quvchilarni tilga chuqurroq o'rgatish mumkin.

Ikkinchchi tomondan innovatsion texnologiyalarni ona tilini o'qitishga kiritish ba'zi muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Texnologiyalarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi. Chekka hududlarda, ayniqsa qishloqlarda, raqamlı texnologiyalarga kirish imkoniyatlari cheklangan bo'lishi mumkin, bu esa ta'limda tengsizlikni kuchaytiradi.

2. O'qituvchilarni texnologiyalarga moslashtirish. O'qituvchilarning innovatsion texnologiyalarni samarali qo'llash uchun malakasini oshirish zarur. Bu esa o'qituvchilarni treninglar va seminarlarga jalgan qilishni talab etadi.

3. Ijtimoiy tarmoqlar va boshqa texnologik vositalar orqali ta'limni suiiste'mol qilish. O'quvchilarning texnologiyalarga bo'lgan haddan tashqari qiziqishi ularning darsga diqqatini jamlashda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun texnologiyalarni to'g'ri va samarali ishlatish uchun pedagogik yondashuv zarur.

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar o'qituvchilarga o'quvchilarni individual ravishda qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Misol uchun, online testlar va interaktiv mashqlar orqali o'quvchilarni doimiy ravishda baholash, ularning bilim darajasini kuzatib borish va zarur bo'lsa, darsni moslashtirish mumkin. Bu esa o'qituvchilarga har bir o'quvchining o'rganish jarayonini yaxshiroq boshqarish imkonini yaratadi.

Ona tilini o'qitishda eng samarali metodikalar individuallashgan yondashuvni qo'llashdir. Metodik fan sifatida ona tili o'qitish metodikasi boshlang'ich ta'lim standardi belgilab bergan vazifalarni amalga oshiradi, ya'ni tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga oid metod va usullarni ishlab chiqadi. [6-5]

Har bir o'quvchi o'ziga xos, shuning uchun o'qituvchi uning ehtiyojlariga moslashgan o'quv rejasi tuzishi lozim. Bu yondashuv o'quvchilarni samarali o'qitish va ularga maxsus yordam ko'rsatish imkonini beradi. Masalan, ko'plab zamonaviy



metodikalar orasida "flipped classroom" (aylanma darslik) usuli, ya'ni o'quvchilarga uyda yangi mavzularni o'rganish va sinfda o'rganganlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatini yaratish tavsiya etiladi. Bu metodni qo'llash orqali o'quvchilarni faol ishtirokchilarga aylantirish mumkin, bu esa ularning ona tilini o'zlashtirishini tezlashtiradi. Dunyo bo'yicha onlayn ta'lim, raqamli platformalar va interaktiv darsliklarni qo'llashda ijobiy natijalar ko'rsatilmoqda. Masalan, Finlyandiya, Singapur va boshqa rivojlangan davlatlar o'quvchilarga ona tilini o'rganishda innovatsion metodlarni qo'llash orqali yuqori natjalarga erishgan. Ushbu mamlakatlar tajribasidan foydalanish va mahalliy sharoitga moslashtirish zarur.

O'zbekistonda ham o'quvchilarga ona tilini o'rganishning samarali usullarini taqdim etish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, shuningdek, xalqaro tajribalarni o'rganib, amaliyotga kiritish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahmatullayev.Sh Hozirgi adabiy o'zbek tili – T.: "Universitet" 2006
2. Hamroyev.M Ona tili - T.: "Iqtisod-moliya"2007
3. To'xliyev.B O'zbek tili o'qitish metodikasi. T.: 2006
4. Shodiyev.F Ona tili – Samarcand.: "SamDU nashri" 2020
5. Qosimova.K Ona tili o'qitish metodikasi – T.: "Noshir", 2009
6. Xoliquov.A Pedagogik Mahorat - T.: "Iqtisod-moliya"2011
7. "Mother Tongue Education: A Teacher's Guide" (UNESCO)
8. Bernard Spolsky "Language education and the challenges of Globalization
9. H. H. Суханова "Современные технологии обучения языку"
10. K.D.Ushinskiy Tanlangan pedagogik asarlar. — Toshkent: , , 0 'zdavnashr", 1959 - 49-bet.
11. The Finnish National Agency for Education (Opetushallitus),
12. Finnish Teacher Education